

O'zbekiston
Metama'lumot
Aholi jon boshiga qurilish ishlari

0. Asoslar

0.1 Qonuniy muhit

0.1.1 Statistik ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish uchun javobgarlik

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi 2002 yil 12 dekabrda tasdiqlangan va 2012 yilda o'rgartirish va qo'shimchalar kiritilgan "Davlat statistikasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi qonuniga muvofiq mustaqil ravishda o'z faoliyatini yuritadi, ushbu qonun bilan davlat statistikasini tashkil etish sohasidagi munosabatlarni tartibga soladi, davlat statistikasi organlarining vakolatlarini belgilaydi hamda yagona statistika axboroti tizimi yuritilishi uchun normativ asos yaratadi.

2017 yil sentyabrda O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining vakolatlari, funksiyalari va tarkibini aniqlab beradigan yangi "O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risida Nizom"i tasdiqlandi, ushbu nizom Davlat statistika qo'mitasi Milliy statistika tizimini muvofiqlashtirish, monitoring va nazorat qilishga mas'ul va ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash, analiz qilish va tarqatish bo'yicha asosiy organ bo'lib hisoblanadi. Shu bilan birga, xalqaro standartlarga mos yagona statistik uslubiyat bilan ta'minlash vazifalarini bajaradi.

Davlat statistika qo'mitasi, statistika ishlarini olib boruvchi boshqa davlat statistika organlari singari davlat statistika hisobotlarini, ma'muriy hisobotlarni va davlat statistika kuzatuvlarini o'tkazish uchun zarur bo'lgan boshqa ma'lumotlarni, shuningdek hisobotlaridagi tushuntirishlarni o'z vakolatlari doirasida boshqa organlardan talab qilib olish huquqiga ega.

2017 yil 12 sentyabrdagi 5054 sonli Prezident topshirig'iga muvofiq, mamlakatdagi iqtisodiy va moliyaviy ma'lumotlar XVJning kengaytirilgan umumiy ma'lumotlar tarqatish tizimi (k-MTUT) doirasiga to'g'ri keladigan va muvofiqlashgan bo'lishi kerak.

0.1.2 Ma'lumot ishlab chiqaruvchi tashkilotlar o'rtasida ma'lumotlar almashinuvi va muvofiqlartirish

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 9-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari Davlat statistikasi ishlari dasturini bajarishda davlat statistikasi organlariga ko‘maklashishi shart bo‘lgan boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar bilan statistika ishlarini hamkorlikda bajaradi. Davlat statistikasi organlari o‘zlarining vakolat doirasiga kiruvchi ayrim ishlarning boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar tomonidan bajarilishiga qonun hujjatlarida belgilangan tartibda yo‘l qo‘yadi. Boshqa davlat organlari hamda yuridik shaxslar Davlat statistika ishlari dasturiga muvofiq davlat statistika kuzatuvlarini, shuningdek davlat statistikasi vakolatli organi bilan kelishilgan shakllarda idoraviy statistika kuzatuvlarini o‘tkazadi. Idoraviy statistika kuzatuvlarining ma‘lumotlari davlat statistikasi vakolatli organiga uning so‘roviga binoan taqdim etiladi.

Bundan tashqari, statistika kengashi davlat statistikasi vakolatli organi huzuridagi davlat statistikasining rivojlantirilishi, faoliyat ko‘rsatishi va muvofiqlashtirilishi muammolari bo‘yicha kollegial maslahat organi hisoblanadi. Statistika kengashi davlat statistikasining ayrim masalalarini ko‘rib chiqish uchun ekspert komissiyalari tayinlashi mumkin. Statistika kengashi va ekspert komissiyalarining yig‘ilishlariga ekspertlar taklif etilishi, yig‘ilishlarda vazirliklar, davlat qo‘mitalari va idoralar vakillarining davlat statistikasi masalalari bo‘yicha axborotlari eshutilishi mumkin. Statistika kengashining tarkibi O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan tasdiqlanadi.

0.1.3 Alohida muxbirlarning ma‘lumotlari maxfiyligi

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

“Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan Davlat statistikasi organlari yakka tartibdagi statistika ma‘lumotlarining maxfiyligini, davlat sirlari va yuridik shaxslarning tijorat sirlariga rioya etilishini, jismoniy shaxslar to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning egasi mavhumlashtirilishini ta‘minlashga majburdirlar. Bundan tashqari 2017 yil sentyabrda 690-son “O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida Nizom”ga asosan, Davlat statistika qo‘mitasi maxfiylik masalalarini hal qilish bo‘yicha xavfsizlik choralarini ko‘radi, shu jumladan bank sirlarini ham. Shu bilan birga, “Davlat statistikasi to‘g‘risidagi” qonunning 7-moddasiga asosan davlat organlari va mahalliy o‘zini o‘zi boshqarish organlarining davlat statistika sohasidagi faoliyatiga aralashuviga yo‘l qo‘yilmaydi.

Davlat statistika qo‘mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o‘zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma‘lumotlarni oshkor qilmasliklari kerak.

Ularni lavozimga tayinlash paytida majburiyatlari haqida ma‘lumot beriladi. Davlat statistika qo‘mitasining har bir xodimi uni bunday ma‘lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini o‘z ichiga olgan shartnomaga qo‘l qo‘yishi shart.

0.1.4 Statistik hisobotlarni taqdim etish

O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi

Davlat statistika qo‘mitasi sifat menejmenti va metama‘lumotlar boshqaruvini ta‘minlaydigan statistika biznes-jarayonlarini ifodalovchi BMT ning Yevropa Iqtisodiy

Komissiyasining (UNECE) Statistika biznes jarayonlar umumiy modelini yuritadi.

Respondentlarga ma'lumot yetkazib berish maqsadida Davlat statistika organlari o'z vakolatlari doirasida moliya, bojxona, soliq organlari, banklar va boshqa idora va xizmatlar, yuridik shaxslar va ularning vakolatxonalari filiallaridan, jismoniy shaxslardan, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan Davlat statistika kuzatuvlarini yuritish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlarni so'rashga va olishga, shuningdek, statistik maqsadlarda foydalaniladigan hisobotlarga tushuntirishlar olishga huquqiga ega.

Bundan tashqari, davlat statistikasi korxonalar va muassasalar statistik ma'lumotlarining ishonchligini tekshiradi, olingan statistik ma'lumotlarni to'liqligi ob'ektivligini ekspertizadan o'tkazadi va buzilganligi aniqlangan hollarda ularni to'g'rilash uchun zarur ko'rsatmalar beradi va statistika ma'lumotlariga tegishli tuzatishlar kiritadi.

0.2 Resurslar

0.2.1 Kadrlar, moddiy-texnik, elektron hisoblash va moliyaviy resurslar (tavsiya etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlarini shakllantirish bilan Markaziy apparatda 7 nafar xodim va hududiy statistika boshqarmalarining sanoat bo'limlarida 2-3 nafar xodim shug'ullanadi.

Xodimlar soni qurilish statistikasi bo'yicha statistik ma'lumotlarni shakllantirish uchun qo'yilgan vazifalarni bajarish uchun yetarli.

Barcha xodimlar iqtisodiy va qurilish sohasida oliy ma'lumotga ega va har ikki yilda kamida bir marta Davlat statistika qo'mitasining Kadrlarni qayta tayyorlash va statistika tadqiqotlari markazida malakasi oshiriladi.

Har bir ish o'rni shaxsiy kompyuter bilan ta'minlangan, dasturiy ta'minot muntazam yangilanib turiladi.

Taqdim etilayotgan moliyaviy resurslar qurilish statistikasi bo'yicha Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan ishlarni bajarish uchun yetarli.

1. Yaxlitlik

1.1 Kasbiy mahorat

1.1.1 Statistikaning xolisligi

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 4-moddasiga asosan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari aniqlik, xolislik va beg'arazlikdir. Bundan tashqari, “O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'g'risidagi Nizomi”da (13-modda, §6) Davlat statistika qo'mitasining prinsiplari beg'arazlikni ta'minlashi belgilangan.

1.1. Manbalar, uslublar va tarqatish usullarini tanlash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

“Davlat statistikasi to'g'risidagi” qonunning 14-moddasiga muvofiq statistika

ma'lumotlaridan davlat manfaatlarini ko'zlab va ilmiy maqsadlarda, jamoatchilikni xabardor etish, bunday ma'lumotlardan foydalanuvchilarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash uchun foydalaniladi. Davlat statistikasi organlari yuridik shaxslardan, ularning vakolatxonalari va filiallaridan, jismoniy shaxslar, shu jumladan yakka tartibdagi tadbirkorlardan olgan birlamchi statistika ma'lumotlari faqat jamlanma statistika ko'rsatkichlarini tayyorlashda statistika maqsadlarida ishlatiladi hamda jamlanma holatda va egasi mavhumlashtirilgan tarzda e'lon qilinadi. Tarkibida davlat siri va tijorat sirlari bo'lgan statistika ma'lumotlari qonun hujjatlarida belgilangan tartibda taqdim etiladi.

1.1.3 Statistika ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish yoki undan noto'g'ri foydalanish bo'yicha sharh

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi statistik ma'lumotlarni noto'g'ri talqin qilish va statistik ma'lumotlardan noto'g'ri foydalanilganda o'z izohini berishi mumkin.

1.2 Shaffoflik

1.2.1 Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish nizomi va tartibini oshkor qilish

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

"Davlat statistikasi to'g'risidagi" qonunning 4-moddasiga binoan, Davlat statistikasining asosiy prinsiplari qulaylik, ochiq-oydinlik va oshkorlikdir. Statistika ma'lumotlarni yig'ish, qayta ishlash va tarqatish bo'yicha shartlar O'zbekiston Respublikasining statistikasiga oid qonun va qarorlarda keltirilgan. Ushbu qonunchilik choralari veb-saytga joylashtirilgan va jamoatchilikni ular bilan tanishish imkoniyati mavjud. Shunday qilib, "Davlat statistikasi to'g'risidagi" qonun (2002 yil) va Qo'mitaning 368-sonli qarori veb-saytga (www.stat.uz) joylashtirilgan. Qonun Oliy Majlis byulletenida ham chop etiladi va normativ-huquqiy xujjatlar bazasiga (norma), shuningdek Adliya vazirligining www.Lex.uz manzilida joylashgan ma'lumotlar bazasida ham mavjud.

1.2.2 Hukumatning statistik ma'lumotlarga e'lon qilinishidan oldin ko'rishning ichki imkoniyati

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Hukumat Davlat statistika qo'mitasining ma'lumotlarini e'lon qilinish vaqtidan oldin ko'rish imkoniyatiga ega emas. Statistika ma'lumotlarni tarqatishda Davlat statistika organlari mustaqildir. Davlat organlarining aralashuviga yo'l qo'yilmaydi ("Davlat statistikasi to'g'risidagi" qonunning 5-moddasi). Faqat qo'mita Raisi statistik ma'lumotlar e'lon qilinishidan oldin ularni ko'ra oladi.

1.2.3 Statistika ma'lumotlarni belgilash

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Jamiyatga e'lon qilinayotgan ma'lumotlar ma'lumot ishlab chiqaruvchi agentlik tomonidan aniq belgilanadi (logotip va izohlar).

1.2.4 Uslubiyatlar, dastlabki ma'lumotlar va statistik usullardagi asosiy o'zgarishlar haqida avvaldan xabar berish.

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Yangi uslubiyatga o'tishdan, mavjud uslubiyatlar va usullarga jiddiy o'zgartirishlar kiritishdan oldin Davlat statistika qo'mitasi jamoatchilikni oldindan ogohlantiradi. Davlat statistika qo'mitasi o'z veb-saytida foydalanuvchilarni qanday o'zgarishlar kutayotganini tushuntiruvchi tegishli uslubiy ko'rsatmalarni joylashtiradi.

1.3. Axloq me'yorlari

1.3.1 Xodimlarning axloqi bo'yicha ko'rmatma

O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi

Davlat statistika qo'mitasi xodimlari axloq kodeksiga, shu jumladan maxfiylik qasamiga rioya qilishlari, o'zlarining vazifalarini bajarishda ularga taqdim etilgan har qanday ma'lumotlarni oshkor qilmasligi kerak. Ular lavozimiga tayinlanayotganda majburiyatlari haqida ma'lumot beriladi. Davlat statistika qo'mitasi xodimi uni bunday ma'lumotlarni oshkor qilmaslik majburiyatini olgan shartnoma tuzishi shart.

2. Metodologiya

2.1 Konsepsiya va ta'riflar

2.1.1 Konsepsiya va ta'riflar (talab etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlari metodologiyasi Xalqaro valyuta jamg'armasi (XVJ) tomonidan tavsiya etilgan xalqaro standartlarning talablariga javob beradi.

Aholi jon boshiga qurilish ishlari:

Aholi jon boshiga qurilish ishlarining hisoblash uslubiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018 yil 30 aprel 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish» bo'yicha uslubiy nizom»; «Система национальных счетов 2008»//Yevropeyskaya komissiya, Mejdunarodnyy valyutnyy fond, Organizatsiya ekonomicheskogo sotrudnichestva i razvitiya, Organizatsiya ob'edinennых natsiy, Vsemirnyy bank//Nyu-York 2012 g ; O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018 yil 26 yanvardagi 2-son qarori bilan tasdiqlangan "Yakka tartibdagi uy-joy va hovli hududi xo'jaliklari qurilishlariga aholi xarajatlarini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga Shaharsozlik normalari va qoidalari (ShNQ 4.01.16-09) "Qurilish bahosini shartnomaviy joriy narxda aniqlash qoidalari"ga asosan hisoblanadi.

Davlat statistika qo'mitasi Xalqaro standartlar talablariga moslashtirilgan uslubiyatni qo'llagan holda ishlab chiqarish indeksini hisoblashni 2004 yildan beri Xalqaro valyuta jamg'armasi missiyasining tavsiyalariga muvofiq ravishda amalga oshiradi.

2.2 Statistik qamrov

2.2.1 Statistik qamrov (talab etiladigan kategoriya)

2.2.1.1 Ma'lumotlarning statistik qamrovi

Ma'lumotlarning geografik qamrovi Qoraqalpog'iston Respublikasi, 12 ta viloyat va Toshkent shahrini o'z ichiga oladi.

Aholi jon boshiga qurilish ishlari umumiy hajmi quyidagi qurilish faoliyatlarini o'z ichiga oladi:

a) yirik korxonalar;

b) kichik korxonalar va mikrofirmalar;

v) qurilish faoliyatini olib boruvchi notijorat tashkilotlari uchun soddalashtirilgan hisobotlar, shuningdek hisobot davrida faoliyati tugatilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari qurilish ishlari aholi jon boshiga qurilish ishlari. Baholash faoliyati tugatilgan tashkilotlarning aholi jon boshiga qurilish ishlari umumiy hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi; hamda notijorat tashkilotlarining **xo'jalik usulida bajarilgan** qurilish ishlarining (asosiy kapitalga investitsiyalari tarkibiga kiradi) oylik hajmlari.

g) uy xo'jaliklarining yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va kapital ta'mirlash qismidagi faoliyatini baholash asosida.

2.2.1.2 Statistik qamrovdan istisnolar

Hech qanday istisnolar yo'q.

2.2.1.3 Aniqlanmagan faoliyat

Yashirin iqtisodiyot hisobga olinmaydi.

2.3 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish

2.3.1 Klassifikatsiya/sectorlar bo'yicha bo'lish (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Faoliyat turlari bo'yicha taqsimlash O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy faoliyat turlari tasniflagichi (OKED 2-nashr) ga muvofiq amalga oshiriladi, mazkur tasniflagich Yevropa Ittifoqidagi iqtisodiy faoliyat tasniflagichi (KDES 2-nashr) ga mosdir.

Hisobning asosiy birligi bu – institutsional birlikdir.

2.4 Hisobga olish asosi

2.4.1 Baholash (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlari ishlarining statistik hisobi hisobot davrining amaldagi narxlarida, qo‘shilgan qiymat solig‘ini qo‘shmagan holda, to‘lov muddatidan qat‘iy nazar, hisobot davrida haqiqatda bajarilgan hajm bo‘yicha amalga oshiriladi.

Qurilish tashkilotlari faolyatini tahlil qilish va inflyatsiya jarayonlarini hisobga olgan holda taqqoslama dinamikada aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmini o‘zgartirish uchun nisbiy ko‘rsatkich – qurilish ishlari **fizik hajmi indeksi** qo‘llaniladi.

Aholi jon boshiga qurilish ishlari fizik hajmi indeksini hisoblash taqqoslanayotgan davrlardagi qiyosiy narxlarga keltirilgan qurilish ishlari hajmlarini solishtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmining indeks-deflyatori qurilish ishlari narxining o‘zgarishini bildiradi va qurilish xarajatlari elementlari bo‘yicha narxlar indekslarining o‘rtacha solishtirilgan kattaligi va ularning qurilish ishlari qiymatidagi ulushlaridan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

2.4.2 Hisobga olish asosi (ma‘lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Tranzaksiya va oqimlar 2008 yilgi MHT (SNS) tavsiyalariga muvofiq keladigan hisoblash usuli bilan ro‘yhatga olinadi.

2.4.3 Yalpi/sof ko‘rsatkichlarni hisoblash tartiblari (tavsiya etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi yalpi ko‘rsatkich sifatida tavsiflanadi. Aholi jon boshiga qurilish ishlari fizik hajmi indeksini hisoblash taqqoslanayotgan davrlardagi qiyosiy narxlarga keltirilgan aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmlarini solishtirish yo‘li bilan amalga oshiriladi.

3. Aniqlilik va ishonchlik

3.1 Boshlang‘ich ma‘lumotlar

3.1.1 Boshlang‘ich ma‘lumotlarni yig‘ish dasturlari (talab etiladigan kategoriya)

Keng qamrovli va muntazam yangilanadigan korxonalar reestri asosida korxonalarda statistik kuzatuvlari o‘tkaziladi.

Statistik faoliyatni amalga oshirish uchun Vazirlar Mahkamasining 2012 yil 25 sentabrdagi "Korxonalarining yagona davlat registri to‘g‘risidagi Nizomni tasdiqlash to‘g‘risida"gi 274-son qaroriga muvofiq faoliyat ko‘rsatuvchi keng qamrovli va muntazam yangilanadigan korxonalar registri (Korxonalarining yagona davlat registri) hamda Vazirlar Mahkamasining 2017 yil 9 fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tadbirkorlik sub’ektlarini davlat ro‘yxatidan o‘tkazish va hisobga qo‘yish tizimini takomillashtirish to‘g‘risida» 2016 yil 28 oktabrdagi PQ-2646-son qarorini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi 66-son qarori hisoblanadi.

Korxonalar registrini yuritish tartibi (jumladan, yangi korxonalarni qo‘shish,

faoliyatini to'xtatgan korxonalarni chiqarish, mulkchilik shaklini o'zgartirish) belgilangan talablarga mos keladi. Ma'lumotlar yig'ish dasturining keng qamrovli xususiyatini ta'minlash maqsadida shakllangan ma'lumotlar doimiy ravishda tahlil qilinadi. Ro'y berayotgan jarayonlarni hisobga olgan holda hisobot shakllari vaqti-vaqti bilan ko'rib chiqiladi.

Aholi jon boshiga qurilish ishlari: Aholi jon boshiga qurilish ishlarini shakllantirishda davlat statistika hisobotlarining birlamchi statistik ma'lumotlar bazasi bo'lib hisoblanadi, bunda:

- Aholi jon boshiga qurilish ishlarining umumiy hajmi to'g'risida yilda bir marta aniq ma'lumot yirik korxonalar, kichik korxonalar va mikrofirmalar, notijorat tashkilotlarining **xo'jalik usulida bajarilgan** qurilish ishlarining (asosiy kapitalga investitsiyalari tarkibiga kiradi) hajmlari, qurilish faoliyatini olib boruvchi notijorat tashkilotlari, uy xo'jaliklarining yakka tartibdagi uy-joy qurilishi va kapital ta'mirlash, shuningdek hisobot davrida faoliyati tugatilgan kichik tadbirkorlik sub'ektlari qurilish ishlari. Baholash faoliyati tugatilgan tashkilotlarning qurilish ishlarining umumiy hajmi to'g'risidagi ma'lumotlar asosida amalga oshiriladi.

- Har oyda, aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi tezkor tartibda, yirik korxonalarining statistik hisobot ma'lumotlari asosida va boshqa yuridik shaxslar (qurilish faoliyatini amalga oshiruvchi kichik korxonalar va mikrofirmalar, notijorat tashkilotlari) aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmini hamda uy xo'jaliklari faoliyatini (har bir kategoriya bo'yicha alohida) baholash asosida hisoblanadi.

Notijorat tashkilotlarining **xo'jalik usulida bajarilgan** Aholi jon boshiga qurilish ishlarining (asosiy kapitalga investitsiyalari tarkibiga kiradi) oylik hajmlari, o'tgan yilgi aniqlik kiritilgan (yillik) ma'lumotlar asosida qurilish-montaj ishlarining umumiy hajmidagi ulushlaridan kelib chiqib baholanadi.

Foydalanishga topshirilgan yakka tartibdagi uy-joylarning qiymati O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018 yil 26 yanvardagi 2-son qarori bilan tasdiqlangan "Yakka tartibdagi uy-joy va hovli hududi xo'jaliklari qurilishlariga aholi xarajatlarini baholash bo'yicha uslubiy nizom"ga asosan har oyda hisoblanadi.

Har oyda yakka tartibdagi noturar joy ob'ektlari quruvchilarining aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi (pudrat tashkilotlarini jalb qilmasdan) Yergeodezkadastr davlat qo'mitasining shahar va tumanlardagi organlari tomonidan taqdim qilinadigan hisobotlari ma'lumotlari asosida shakllantiriladi.

3.1.2 Ta'riflar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, baholashlar va boshlang'ich ma'lumotlarni hisobga olish davri (tavsiya etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlari:

Asosiy ma'lumotlarni shakllantirilishi buxgalteriya hisobi va hisobot davridagi muddatga to'g'ri keladi. Eng muhim qurilish guruxlari bo'yicha faoliyat turlari aynan bir xildir.

Ma'lumotlar: oylik – xisobot davridan keyingi 10 ish kunidan kechiktirmasdan, har yili – xisobot davridan keyingi 6 oydan oshmasdan chiqariladi.

3.1.3 Boshlang'ich ma'lumotlarning o'z vaqtida tayyor bo'lishi (tavsiya etiladigan kategoriya)

Ma'lumotlarni yig'ish dasturi Davlat statistika ishlari dasturi tomonidan tartibga solinadi.

Aholi jon boshiga qurilish ishlari: Aholi jon boshiga qurilish ishlari ko'rsatkichlari to'g'risidagi oylik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi tomonidan hisobot davridan keyingi oyning 10 kunidan kechikmasdan shakllantiriladi va u joriy ma'lumotlar standartiga mos keladi. Yillik ma'lumotlar - hisobot davridan keyingi 6 oydan oshmasdan chiqariladi.

3.2 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash

3.2.1 Boshlang'ich ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Korxonalaridan olingan ma'lumotlar nafaqat tuman statistika bo'limi va viloyat statistika organlari darajasida tahlil qilinadi, qolaversa Davlat statistika qo'mitasida ham nazorat va tekshiruvdan o'tadi. Ro'yhatga olish, tasniflash va xatolarni tekshirishda aniqlangan xato va kamchiliklar albatta respondentlar bilan yana bir bor aniqlashtirilib olinadi.

Dastlabki ma'lumotlar boshqa tegishli ma'lumot manbalari bilan taqqoslash yo'li orqali tahlil qilinadi.

3.3 Statistik usullar

3.3.1 Boshlang'ich ma'lumotlar bilan ishlashda statistik usullar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador kategoriya sifatida talab etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlari:

Ayrim toifalar (jismoniy shaxslar va boshqalar) uchun baholash hisob-kitoblari so'rovnomalar ma'lumotlari bilan konseptual muvofiqlashtirilgan va umumiy yondashuvlarga ega.

Respondentlar tomonidan taqdim etiladigan ma'lumotlarning majburiyligi «Davlat statistikasi to'g'risida»gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni bilan belgilab qo'yilgan.

Aholi jon boshiga qurilish ishlari fizik hajmi indeksini hisoblash taqqoslanayotgan davrlardagi qiyosiy narxlarga keltirilgan Aholi jon boshiga qurilish ishlarining hajmlarini solishtirish yo'li bilan quyidagi formula orqali amalga oshiriladi:

$$I_{f.o.} = (V_1 : V_o) : I_{defl} * 10000,$$

bu yerda $I_{f.o.}$ – aholi jon boshiga qurilish ishlari fizik hajm indeksi, %;

V_1 , V_o – hisobot davri va o'tgan yilning tegishli davri uchun aholi jon boshiga qurilish ishlari joriy narxlardagi hajmi;

I_{defl} – indeks-deflyator, %.

O'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi yig'ma indeks-

deflyator, ya'ni yuridik va jismoniy shaxslarning aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmlarining o'rtacha umumlashtirilgan indeksini qo'llash orqali hisoblanadi. Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmining indeks-deflyatori qurilish ishlari narxining o'zgarishini bildiradi va qurilish xarajatlari elementlari bo'yicha narxlar indekslarining o'rtacha solishtirilgan kattaligi va ularning qurilish ishlari qiymatidagi ulushlaridan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

3.3.2 Boshqa statistik jarayonlar (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlari:

Aholi jon boshiga qurilish ishlari hisoblashlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018 yil 30 aprel 11 sonli qarori bilan tasdiqlangan «Qurilish ishlari umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom»; O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018 yil 26 yanvardagi 2-son qarori bilan tasdiqlangan «Yakka tartibdagi uy-joy va hovli hududi xo'jaliklari qurilishlariga aholi xarajatlarini baholash bo'yicha uslubiy nizom»; O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining 2018 yil 30 apreldagi 10-son qarori bilan «Nomoliyaviy aktivlarga investitsiyalar umumiy hajmini shakllantirish bo'yicha uslubiy nizom» uslubiyatlarga asoslanib xisoblanadi.

3.4 Ma'lumotlarni taqqoslash

3.4.1 Oraliq natijalarni taqqoslash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Baholangan va hisobot ma'lumotlari muntazam ravishda solishtirib boriladi. Dastlabki va aniqlashtirilgan ma'lumotlar orasida katta tafovut chiqmaydi.

3.4.2 Oraliq ma'lumotlarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Asosiy oraliq ma'lumotlarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nomuvofiqliklar tahlili o'tkazilib, ma'lumotlar mos kelmaslik holatini bartaraf etish uchun ko'rsatkichlar tuzatib boriladi.

3.4.3 Yakuniy statistik ma'lumotlardagi farqlarni va boshqa muammolarni baholash (tavsiya etiladigan kategoriya)

Avval nashr etilgan ma'lumotlarda nomuvofiqlik mavjud bo'lsa, keyingi ma'lumotlarda bu ma'lumotlarga o'zgartirish kiritiladi. Muvofiqlashtirish boshqa tashkilotlar va korxonalar bilan amalga oshirilishi mumkin.

3.5 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish tahlili

3.5.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni o'rganish va tahlil qilish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlari: Dastlabki yillik yanvar-dekabr oylari uchun ko'rsatkichlar yillik hisobot ma'lumotlari bilan hisobot davridan 6 oydan keyin taqqoslanadi.

4. Amaliy yaroqlilik

4.1 Davriylik va o'z vaqtidaligi

4.1.1 Davriylik (talab etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlari: Aholi jon boshiga qurilish ishlari hajmi har чоракда, aniqlashtirilgan ma'lumotlar esa yillik hisobot asosida hisoblanadi.

4.1.2 O'z vaqtidaligi (talab etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlari: Aholi jon boshiga qurilish ishlari hisobot davridan keyingi oyning 10 kuni, yillik ko'rsatkichlar esa hisobot davridan keyin 6 oydan kechikmasdan e'lon qilinadi. Ma'lumotlar nashr qilish taqvimida belgilangan vaqt jadvaliga asosan qo'mitasining saytida <https://stat.uz/uz/180-ofytsyalnaia-statystyka-uz/6565-4353454> e'lon qilinadi.

4.2 Qiyosiylik

4.2.1 Ichki qiyosiylik (ma'lumotlar kategoriyasiga aloqador sifatida talab etiladigan kategoriya)

Statistik qatorlar tasdiqlanib, e'lon qilingandan so'ng qayta ko'rib chiqilmaydi.

4.2.2 Vaqt bo'yicha qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlari: Aholi jon boshiga qurilish ishlari bo'yicha dinamik qatorlar mavjud. Xalqaro valyuta jamg'armasi missiyasining tavsiyalariga muvofiq Davlat statistika qo'mitasi 2004 yildan beri xalqaro standartlar talablariga moslashtirilgan ishlab chiqarish indeksini hisoblab boradi. Aholi jon boshiga qurilish ishlari fizik hajm indeksi bo'yicha dinamik qatorlar mavjud.

4.2.3 Sektorlar va sohalar o'rtasidagi qiyosiylik (tavsiya etiladigan kategoriya)

Statistik ma'lumotlar MHT (SNS) ma'lumotlari bilan muvofiqlashtirilgan.

4.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish

4.3.1 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqish jadvali (talab etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlari: Yillik statistik ko'rsatkichlar ma'lumotlari davlat statistika ishlari dasturida nazarda tutilgan muddatda yangilanadi. Choraklik ma'lumotlar qayta ko'rib chiqilmaydi, yillik ma'lumotlar may-iyun oyida aniqlashtiriladi.

4.3.2 Dastlabki va/yoki qayta ko'rib chiqilgan ma'lumotlarni aynan shu toifasi bo'yicha belgilash (talab etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlari bo'yicha ma'lumotlar Davlat statistika ishlari dasturida belgilangan muddatlarda aniqlashtirilgan yillik hisobotlar asosida qayta ko'rib chiqiladi.

4.3.3 Ma'lumotlarni qayta ko'rib chiqishni tahlil qilish va o'rganish bo'yicha olingan natijalarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Statistik to'plamlarda oldingi yil uchun ayrim ko'rsatkichlar qayta ko'rib chiqilishi ko'rsatiladi. Qayta ko'rib chiqilgan (yakuniy) ma'lumotlar Davlat statistika qo'mitasining nashrlari orqali chop etiladi.

5. Qulayligi

5.1 Ma'lumotlar

5.1.1 Statistik ma'lumotlarni taqdim etish shakli (talab etiladigan kategoriya)

Aholi jon boshiga qurilish ishlari to'g'risidagi ma'lumotlar foydalanuvchilarga «O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati» va boshqa nashrlar orqali onlayn va elektron shaklda taqdim etiladi.

5.1.2 Ma'lumotlarni tarqatish vositalari va shakllari (talab etiladigan kategoriya)

5.1.2.1 Bosma shaklida – Yangi nashrlar

Ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasining nashrlari orqali chop etilgan shaklda foydalanuvchilarga tarqatiladi: «O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati» (choraklik) va boshqalar.

5.1.2.2 Bosma shaklida – Haftalik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.3 Bosma shaklida – Oylik byulletenlar

Mavjud emas.

5.1.2.4 Bosma shaklida – Choraklik byulletenlar

«O‘zbekiston Respublikasining ijtimoiy-iqtisodiy holati», «O‘zbekiston Respublikasining statistik tasviri».

5.1.2.5 Bosma shaklida – Boshqalar

Foydalanuvchilarning maxsus so‘rovlari bo‘yicha jadvallar.

5.1.2.6 Elektron shaklda – Onlayn byulletenlar yoki ma’lumotlar

Choraklik elektron press-reviz.

5.1.2.7 Elektron shaklda – Boshqalar

Davlat boshqaruv organlari va boshqa foydalanuvchilarga so‘rovlar bo‘yicha har chorakda va har yili ma’lumotlar elektron shaklda jadvallarda taqdim etiladi.

5.1.5 So‘rov bo‘yicha ma’lumotlarni tarqatish (tavsiya etiladigan kategoriya)

Aniq tafsilotlarga so‘rov bo‘yicha ega bo‘lish mumkin. O‘zbekiston Respublikasining «Davlat statistikasi to‘g‘risida»gi qonuniga, «O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi to‘g‘risida»gi nizomga, Statistik axborotlarni tayyorlash va tarqatish ishlarini tashkil etish qoidalari va boshqa me‘yoriy hujjatlarga muvofiq, statistik ma’lumotlar foydalanuvchilarga so‘rovlari bo‘yicha belgilangan tartibda taqdim etib boriladi. Statistik axborotlarni tarqatish yuridik va jismoniy shaxslarni yozma so‘rovlari bo‘yicha bosma yoki elektron jadval ko‘rinishda, statistik to‘plamlar, byulletenlar, tezkor axborot shaklida, shuningdek tomonlar o‘rtasidagi axborot almashinuvi to‘g‘risidagi bitimlarga asosan amalga oshiriladi.

5.2 Metama’lumotlar

5.2.1 Konsepsiyalar, statistik qamrov, klassifikatsiyalar, hisobga olish asosi, ma’lumotlar manbasi va statistik usullar to‘g‘risidagi hujjatlarni tarqatish (talab etiladigan kategoriya)

Davlat statistika qo‘mitasining veb saytida (<https://lib.stat.uz/uz/uslub-mater-uz/investitsiyalar-va-qurilish>) statistika ko‘rsatkichlarini shakllantirish va

hisoblash uchun uslubiy qo‘llanmalar joylashtirilib kelinadi.

9. Rejalar

9.1 Oxirgi

9.1.1 Takomillashtirish rejalari – Oxirgi takomillashtirishlar

Qurilish ishlari bo‘yicha analitik ma’lumotlarni tayyorlash va Davlat statistika qo‘mitasining saytida (www.stat.uz) joylashtirish.

9.2 Umumiy

9.2.1 Takomillashtirish rejalari – Qisqa muddatlilari

9.2.2 Takomillashtirish rejalari – O‘rta muddatlilari

9.3 Moliyaviy

9.3.1 Takomillashtirish rejalari – Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar – Qisqa muddatli

Moliyalashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida ko‘zda tutilgan.

9.3.2 Takomillashtirish rejalari - Texnik yordam/moliyalashtirishga ehtiyojlar– O‘rta muddatli

Moliyalashtirish Davlat statistika ishlari dasturi doirasida ko‘zda tutilgan.

Aloqa bog'lash uchun shaxs (shaxslar):

Aloqa bog'lash uchun shaxs 1

F.I.O.: Jomolov Muzaffar Mirzoxitovich
Lavozim: Investitsiya va qurilish statistikasi boshqarmasi boshlig'i
Bo'linma:
Bo'lim:
Departament:
Idora: Davlat statistika qo'mitasi
Manzil (1 satr): Mustaqillik shox ko'chasi, 63-uy
Manzil (2 satr):
Shahar/region: Toshkent
Mamlakat: O'zbekiston
Pochta indeksi: 100192
Telefon: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam 998 71 2308056
Faks: mamlkat kodi/shahar kodi/raqam
Elektron manzil: